

## OROLBO'YI QURIGAN QISMIDA DORIVOR YEM-XASHAK O'SIMLIKLARNI BAHOLASH

*Safarniyozov Xushnudjon Omonboy o‘g‘li*

*Qoraqalpog’iston qishloq xo’jaligi va agrotexnologiyalar instituti dorivor ósimliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi yo’nalishi 2-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Maqolada Orolbo’yi qurigan qismida dorivor yem-xashak o’simliklarning hozirgi vaqtagi holatini baholash ilmiy adabiyotlar bo'yicha tahlil qilingan.Ularning hozirgi vaqtagi turlar sonining dominantlik qilishi aniqlangan.

### Kirish

Orol dengizning qurishi mintaqani ekologik tang zo’naga aylantirib, biologik xilma-xillikning kamayishiga, turli kassaliklarning paydo bo’lishiga va cho’llanish jarayonlarining tezlashishiga olib kelgan. Natijada Orol dengizi ekologik fojiasi ta’sirini yumshatishga qaratilgan chora tadbirlarni rivojlantirish dolzarb axamiyat kasb etadi. Orol va Orolbo’yida sodir bo’layotgan jadal ravishda cho’llanish hodisasi dunyo tajribasida uchratilmagan. Shuning uchun ham uni miqdor va sifat jixatdan baxolashda ancha qiyinchiliklarga duch kelinmoqda. Dengiz tubining ochilishi daryo deltalarning qurishi hisobiga millionlab hektar maydon yuzasi mayda tuz zarrachalari bilan qoplanib yangi shakildagi qum qoplamlarini hosil qiladi. So’ngi ma’lumotlarga ko’ra yilliga atmosferaga 15-75 mln tonnagacha chang to’zon ko’tarilishi mumkin. Natijada tuproq resurslari, yer osti suvlarining, atmosfera havosining yuqori darajadagi chang tuz fraksiyalari bilan ifloslanishiga, kuchli sho’rlangan yer osti suvlarining yuza joylashishi ham cho’llanish jarayonini kuchaytirmoqda.

Tuproqlarning sho’rlanishi hisobiga qishloq xo’jaligi maxsulotlarining hosili 30% gacha pasayib ketmoqda. O’simliklar qatlaming o’zgarishi bilan umumiylor va yem-xashak o’simliklarining zaxirasi kamayib bormoqda.Yaylovlarning qisqarishi va hosildorlikning pasayishi chorva mollarga o’z tasirini ko’rsatadi.

Hozirgi vaqtida u dunyoning ko’plab mamlakatlarida eng katta iqtisodiy, siyosiy va ekologik muammolardan biriga aylanib bormoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Konventsiyasining ishlab chiqilishi va kuchga kirishi turli darajadagi qurg'oqchilik va yerlarning degradatsiyasi bo’lgan mamlakatlarda kuchli qurg'oqchilik va qurg'oqchilikka qarshi kurashda samarali choralarmi qo’llash yo’lidagi amaliy qadam bo’ldi. Jiddiy qurg'oqchilik va cho’llanishni boshdan kechirayotgan mamlakatlarda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Cho’llanishga qarshi kurash to’grisidagi



konventsiyasini ishlab chiqish va kuchga kirishi cho'llanishga qarshi kurash bo'yicha barcha darajalarda ko'rildigan samarali chora-tadbirlar uchun asos bo'ldi.

Ustyurt platosi Korakalpoq qismida yem-xashak bazasi spektrida Chenopodiaceae (63 tur), Brassicaceae, (33 tur), Boraginaceae (17 tur), Poaceae (24 tur), Asteraceae (20 tur), Fabaceae (16 tur), Apiaceae (12 tur), Saryofilaceae (7 tur), Polygonaceae (7 tur), Lamiaceae (6 tur). Hozirgi vaqtida u dunyoning ko'plab mamlakatlarida eng katta iqtisodiy, siyosiy va ekologik muammolardan biriga aylanib bormoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Konventsiyasining ishlab chiqilishi va kuchga kirishi turli darajadagi qurg'oqchilik va yerlarning degradatsiyasi bo'lgan mamlakatlarda kuchli qurg'oqchilik va qurg'oqchilikka qarshi kurashda samarali choralarmi qo'llash yo'lidagi amaliy qadam bo'ldi. Jiddiy qurg'oqchilik va cho'llanishni boshdan kechirayotgan mamlakatlarda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Cho'llanishga qarshi kurash to'g'risidagi konventsiyasini ishlab chiqish va kuchga kirishi cho'llanishga qarshi kurash bo'yicha barcha darajalarda ko'rildigan samarali chora-tadbirlar uchun asos bo'ldi. Qoraqalpog'iston Ustyurt plotosida em-xashak florasi 28 oila, 145 turkumga 232 turdan tashkil topgan. Shunday qilib, oilalar spektrida Chenopodiaceae (63 tur), Brassicaceae, (33 tur), Poaceae (24 tur), Asteraceae (20 tur), Boraginaceae (17 tur), Fabaceae (16 tur) va Apiaceae (12 tur) dominantdir. Ushbu oila vakillari tadqiqot o'tkazilayotgan hududdagi umumiy yem-xashak ekinlarining 79,7% ni tashkil qiladi (1-jadval)

### 1-jadval

#### Ustuyurt plotosi Qoraqalpog'iston qismi yem-hashak florasining yetakchi oilalar va turkumlar spektri (Aymuratov R 2020y)

№	Оиласлар номи	Турлар сони	%	Туркумлар номи	Турлар сони	%
1	Chenopodiaceae	63	27,15	Salsola	10	32,2
2	Brassicaceae	33	14,22	Astragalus	8	25,8
3	Boraginaceae	17	7,32	Strigosella	4	12,9
4	Poaceae	24	10,34	Ferula	3	9,7
5	Asteraceae	20	8,62	Tamarix	2	6,45
6	Fabaceae	16	6,89	Gypsophila	2	6,45
7	Apiaceae	12	5,17	Atrapaxis	2	6,45
	Жами	185	100		31	100

Ustuyurt plotosi Qoraqalpog'iston qismi yem-hashak o'simliklarining ayrim turlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak: **Qizilcha (xvoynik)-bu** o'simlikga kiradigan o'simlik turlari CCCR da 9 ta turi uchrashgan. Shuning ichida 4 ta turi chorva mollarga


oziq uchun yaroqli.Qizilcha bo'yi 8-20 sm ga yetadi. U yilning barcha mavsumlarida yam-yashil bo'lib o'sib turadi.Bu o'simlik yerga to'shalib o'sadi mayda mayda shoxlar chiqaradi. Qizilcha Ustirt sharoitida (toshloq,qirli,gipsli,)to'piroqlarda ko'plab o'sadi.Bu o'simlik Ustirtning dengiz yoqalarinda tik jarlar orasida o'sadi 1m<sup>2</sup> yerda 1-2 ta o'simlikdan to'g'ri keladi ham har gektar yerda 0.5 sentinerdan o'nim beradi. Bu o'simlikning ikkinchi xususiyati uning dorivor o'simliklar qatorina kirishidan iborat.Asosan qizilcha o'simligining ximiyalik tarkibida (Efedrin)alkaloidlari bo'ladi.Bu o'simlik qadimdan choyning o'rnida foydalanib kelgan va suvuq urishi revmatizim kasalliklarini emlashda foydalanilgan.Hamda nafas qisishi kasalligida ham qo'llaniladi.Bundan tashqari bu o'simlikdan tayyorlanga dorilar qan tomir urishi pasaygan vaqtarda ham foydalaniladi .Qizilcha o'simligi Qara bavur,Belauli,Shuriq ham Borsakelmas massivlarida uchrashadi.

**Selev**-Bu o'simlik kiradiga oilaga 150 dan ortiq tur kiradi,bu dunyoning ko'pchilik yerlarida hottoki Afrika ning issiq zonalarida ham uchraydi.Ularning bir yillik,ko'p yillik turlarida bor CCCR da bu o'simlik kiruvchi oilaning 5 ta turi uchragan,mana shuning ichida Ustirtda sharoitida ko'p tarqalgan Selev bo'lib tapiladi.Bu o'simlik Qarauvumbet tuzli ko'linging kumli to'proqlarinda ,va Borsakelmas tuzli ko'lining yaqinida gipsli kumlarda uchrashadi.Selev o'simligining bir tupining diametric 70-80 sm ga boradi.Bu o'simlik aprel oyining o'rtalarindan boshlab may oylarindan gullab boshlaydi iyun-iyulda tuxumi pishadi.Izlanishlarga qaraganda bu o'simlik sentabr va oktabr oylarinda ikkinchi marta gullaydi.Bu o'simlikni qurutilgan holda mollarga ham turli ovqat uchun ham foydalanishga bo'ladi.Ximiyalik tarkibi kul 6.7-11%,prateyin 3.4-13%,oqsil 3-11% yog' 1.1-6% ,klechatka 25-43.3% ,azotsiz ekstraktlar 34-63.5% tashkil qiladi.

**Mortiq**- CCCR da bu o'simlik oilasiga tegishli 5 tur uchrashgan. Mortiq faqatgina tuzli to'piroqli yerlardan tashqari bashqada yerdarda uchragan.Mortiq 1 yillik o'simlik bo'yi 10-40sm ga yetadi. Mortiq bir qancha o'simliklar bilan aralashib o'sadi bular: burgin,boyalich,juvsang,keyruek,qara saksovul,qir saksovuli bilan birgalikda o'sadi.Izlanishlarga qaraganda burgin o'simligi mortiqning eng yaqin yo'ldoshi hisoblanadi.Mortiqning ximiyalik tarkibi: kul5.4-15.2%,prateyin5.2-32%,oqsil 6.5-43.4%, yog' 1.1-6%, klechatka 16.2-43.4%, azotsiz ekstrakt 31-59% ni tashkil qiladi. Bu o'simlik Ustirtning barcha massivlarinda kengdan tarqalgan.Bu co'simlik har turli ekologik sharoidga moslashadi.

**Burgin (ejovnik)**-Dunyo yuzida bu o'simlik kiradigan oilaning 30 turi bor.Shundan Qoraqolpog'istonda 4 ta turi o'sadi.Oldin Ustirtda bu o'simlikning 6 ta turi bor bo'lgan degan olimlarning fikirlari bor.Burgi yarim buta o'simlik bo'yi 5-30 sm

Ustirtda burgin 50sm gacha bo'lib o'sadi. Burgin Ustirtning 80% ni egallaydi. Burgin gektarina 1.5-2.5 sentiner quruq massa va 5-10 sentiner yashil massa beradi. Burgin o'simligining ximiyalik tarkibi : kul 18.2-31.3 %, proteyn 7.1-23%, oqsil 3.4-11.4 %, moy 1.5-3.2 %, klechatka 11.4%, azotsiz ekstrakt 34-48% ni egallaydi. Olimlarning izlanishlariga ko'ra 1.8-2% limonvkislotasi bor ekanligi aniqlangan. Burgin (**fitoniyalogik**) O'simlik hisoblanadi bu degani bir qancha o'simliklar bilan o'suvchi o'simlik hisoblanadi.



**Orolbo'yi qurigan qismida dorivor yem-xashak o'simliklarning Diagrammasi (Aymuratov R 2020y)**

Shunday qilib, Orolbo'yi qurigan qismida dorivor yem-xashak o'simliklarni adabiyotlar bo'yicha tahlil qilganimizda oilalar spektrida Chenopodiaceae (63 tur), Brassicaceae, (33 tur), Poaceae (24 tur), Asteraceae (20 tur), Boraginaceae (17 tur), Fabaceae (16 tur) va Apiaceae (12 tur) dominantdir. Ushbu oila vakillari tadqiqot o'tkazilayotgan hududdagi umumi yem-xashak ekinlarining 79,7% ni tashkil qilishi aniqlangan. Ekologik sharoitning keskin o'zgarishi o'simliklar qoplaming floristik tarkibiga o'z ta'sirini ko'rsatdi va natijada mezofil o't o'simliklar kserofil va galofil o'simliklar o'rnini egallamoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Аимбетов Н.К., Тлеумуратова Б.С., Мамбетуллаева С.М., Аймуратов Р.П. и др. Динамика и потенциал природной среды Каракалпакстана // Монография. Нукус. – «Илим». - 2017. С.78-96.
2. Аймуратов Р. П., Пиржанова Р. К., Танирбергенова А. Б. Современное динамика тенденции антропогенных и техногенных изменений растительного покрова плато Устюрт //Сборник тезисов VI Международной научно-практической конференции «Проблемы рационального использования и охрана биологических ресурсов Южного Приаралья». Нукус-2018. Ч. I. С.95.
3. Shomurodov H.Sh, Adilov B.A., Raximova T., Raximova N., Vokhidov Y. Some Notes on the Key Botanical Territories of Ustyurt (Uzbekistan) and the Influence of Oil and Gaz Industries on Them. American Journal of Plants Sciences. 2017. № 8. P.2811-2824. (03.00.00., №2)
4. Зарипов Х. Қарақалпағистан Устиртининг ўт-шўп ресурслари.Toshkent 1996у